

YANGI

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 8 (1069), 2024-yil 12-yanvar, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI
MUDOFAA SANOATI
MAJMUALARI
BILAN TANISHDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev 11-yanvar kuni Mudofaa sanoati agentligining Toshkent viloyatida joylashgan ishlab chiqarish klasteriga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Qurolli Kuchlarimizni isloh qilish, ularni zamonaviy talablarga to‘liq javob beradigan, yangi O‘zbekistonning mustaqilligi va suvereniteti, xalqimiz xavfsizligi va farovonligini kafolatli ta‘minlashga qodir yangi armiyaga aylantirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Xususan, keyingi yillarda qo‘shinlarning tezkor va jangovar tayyorgarligi samarasi va sifatini oshirish, harbiy xizmatchilarning malaka va ko‘nikmalarini yuksaltirish uchun zamonaviy sharoitlar yaratish maqsadida zarur infratuzilmaga ega bir qator o‘quv poligonlari barpo etildi va bu boradagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda yangi bosqichga ko‘tarilayotgan mudofaa sanoatini modernizatsiya qilish va salohiyatini oshirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Aynan shu maqsadda o‘tgan yilning yanvar oyida Prezident Mudofaa sanoati agentligini Mudofaa vazirligi tizimiga o‘tkazish va uning faoliyatini yanada rivojlantirish yuzasidan topshiriq bergan edi.

Agentlik tomonidan zarur harbiy-texnik mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, zamonaviy harbiy texnikalarni xarid qilish va qo‘shinlarga yetkazish hamda mavjud qurol-aslaha namunalari modernizatsiya qilish bo‘yicha tizimli ishlar yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi tashrif davomida Prezidentimizga Mudofaa sanoati agentligining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha qilinayotgan ishlar va kelgusi rejalari to‘g‘risida batafsil axborot berildi.

Davlatimiz rahbarining topshirig‘iga muvofiq qisqa muddatda Mudofaa vazirligining bir nechta texnik bo‘linmalari negizida keng ko‘lamli qurilish ishlari bajarildi, mavjud obyektlar mukammal ta‘mirlandi va rekonstruksiya qilindi. Klaster hududiga Mudofaa vazirligining texnikani ta‘mirlash zavodi va Markaziy avtomobil texnikasini saqlash bazasi ko‘chirildi.

Yangi klaster hududida joylashgan korxonalar o‘zaro integratsiya qilinib, ularning yagona ta‘mirlash sxelari tashkil qilindi. Mazkur korxonalarda qurol-yarog‘

va harbiy texnika, radiolokatsiya qurilmalari, optik va elektron-optik asboblari, o‘qotar va artilleriya qurollari modernizatsiya qilinmoqda hamda metallarga yuqori aniqlikda ishlov berilmoqda.

Davlatimiz rahbari ushbu quvvatlar faoliyati bilan tanishib, sohaga ilg‘or texnologiyalarni keng jalb qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish zarurligini qayd etdi, korxonalar faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan ko‘rsatmalar berdi.

Sanoat tarmoqlariga, shu jumladan, mudofaa sanoatiga “yashil” texnologiyalarni keng joriy qilish bo‘yicha belgilangan vazifalarga muvofiq hamda elektr energiyasini iqtisod qilish maqsadida klaster hududida quyosh panellari o‘rnatilgan. Bu ishlab chiqarish jarayonlarining elektrga bo‘lgan ehtiyojining katta qismini muqobil manbalar hisobidan ta‘minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, davlatimiz rahbariga Mudofaa sanoati agentligining yangi klasteridagi ishlab chiqarish quvvatlari tomonidan ta‘mirlangan va modernizatsiya qilingan harbiy texnika va qurol-yarog‘ namunalari namoyish etildi.

Mudofaa sanoati mahsulotlarining taqdimoti chog‘ida davlatimiz rahbariga “Kelajak askari” majmuasi tarkibiga kiruvchi maxsus aslaha va anjomlar to‘plami amalda namoyish etildi. Ushbu to‘plam mamlakatimiz mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uning xususiyatlari jahonning yetakchi ishlab chiqaruvchilari tomonidan tayyorlangan muqobilardan qolishmaydi.

Tashrif chog‘ida Oliy Bosh Qo‘mondon yangi turdagi harbiy mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha korxonalar faoliyatiga start berdi. Mahsulotlarning yuqori sifatini ta‘minlash, muhandis va mutaxassislar malakasini oshirish zarurligini ta‘kidlandi.

Yakunda Prezidentimiz mutasaddilarga mudofaa sanoati korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlarini yanada kengaytirish yuzasidan aniq topshiriqlar berdi.

O‘zA

YANGI O‘ZBEKISTON ARMIYASI
MAMLAKAT QUDRATI, YUKSAK G‘URUR
VA SADOQAT TIMSOLIDIR14-YANVAR —
VATAN HIMOIYACHILARI KUNI

Insoniyat tamaddunining beshigi bo‘lgan muqaddas Vatanimiz ayni kunlarda yangi davrga qadam qo‘yib, jahonda yangi O‘zbekiston nomi bilan qayta bo‘y ko‘rsatmoqda. Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mard va olijanob xalqimiz iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sohalarda yangi marralarni ko‘zlab, yangidan-yangi yutuqlarga erishmoqda. O‘zining muqaddas qasamyodiga hamisha sodiq qolib, xizmat burchini sharaf bilan ado etayotgan bahodir o‘g‘lonlarimiz ham ulug‘ ajdodlar an‘analarini davom ettirgan holda, xalqimiz orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish, O‘zbekiston mustaqilligi va elimiz tinchligini himoya qilish yo‘lida sobitqadamdir.

Mamlakat taraqqiyotiga
kafolat

Prezidentimiz tashabbus va ko‘rsatmalari bilan mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida milliy armiyamizning qiyofasi va salohiyati ham tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda O‘z-

bekiston Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta‘minlashga qodir, harakatchan va puxta qurollangan qudratli kuchga aylandi.

Bu jarayonda umumxalq referendumida asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz armiyamizning ham qiyofasini tubdan o‘zgartirish, qo‘shinlar

jangovar shayligini takomillashtirish va davlat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlashga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli islohotlarni davom ettirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratib berdi.

Bugungi kunda dunyoda keskin o‘zgarib borayotgan harbiy-siyosiy vaziyat, uning turli ko‘rinishdagi tahdidlar fonida rivojlanish tendensiyalari eng qimmatli boyligimiz — jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash naqadar muhim ekanini anglatmoqda. Mudofaa vazirligi rahbariyati, harbiy okruglar qo‘mondonliklari dunyoda ro‘y berayotgan qurolli to‘qnashuvlarni tahlil qilgan holda qo‘shinlarni tayyorlashning eng maqbul yo‘nalishlari va mazmunini belgilab, Qurolli Kuchlarning tezkor boshqaruvini tashkil etish, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqib, amalga oshirishga qaratilgan.

Davomi 3-beta

Tarix va taqdir



AKA-UKA JADIDLAR

Millat va ma‘rifat fidoyilari —
Norbekovlarning armonli qismati

Milliy ong va milliyatning rivojlanishida kapitalistik munosabatlarning muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon Vatanimizda juda og‘ir kechdi. Chunki mustamlakachi chor Rossiyasi o‘sha paytda Yevropadagi eng qolq davlatlardan biri edi. Buning ustiga, Turkistonda o‘ta qabih siyosat olib bordi: jahon tamaddunidan butunlay uzilgan holda saqladi. Ayniqsa, ta‘lim-tarbiya tizimi uzoq yillar, hatto sho‘ro mustamlakachiligi davrida ham ibtidoiy ahvolda davom etdi. Shunday sharoitda dunyo ko‘rgan Vatani, millat, ma‘rifat fidoyilari — mahalliy mulkdorlar xalqni jaholat botqog‘idan ma‘rifat sari yetaklashda nafaqat mol-mulkini, hatto aziz jonlarini ham nisoriy etdilar.

Aslini olganda, jadedchilik harakatining rahnamolari, millatning ilg‘or ziyolilari ham G‘arb ilm-fanini egallagan, milliy ma‘naviyati yetuk, yangi tug‘ilib kelayotgan burjuaziya toifasiga mansub edi. Axir biror gazeta yoki jurnal tashkil etish, matbaa va bosmaxona, maktab ochish va zarur boshpana, o‘quv-yozuv qurollari, darslik hamda qo‘llanmalar yaratish, nashr etish kabi yumushlar katta mablag‘ talab etardi-da. Sho‘rolar davrida kommunistik mafkura

bunday xayrli ishlarni amalga oshirganlar katta mulkdorlar toifasiga mansubligini ochiq-oydin yozishga aslo yo‘l qo‘ymasdi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida aytgan quyidagi so‘zlariga quloq tutaylik:

Davomi 5-beta

Bugunning gapi

IQTISODIY O‘SISH:
KUTILMA VA AMALIY NATIJALAR

Bu dunyoda hamma narsaning o‘z tosh-u tarozisi, qoida-yu tamoyillari bor. Davlatlar uchun bu boradagi iqtisodiy mezon yalpi ichki mahsulotning hajmi hisoblanadi. U o‘zida mazkur mamlakatning butun ishlab chiqarishi hamda ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha muayyan muddatda erishgan jami natijalarini mujassam etadi.

YIM konsepsiyasi birinchi marta 1934-yilda AQSH Kongressi uchun hisobotni tayyorlashda iqtisodchi Saymon Kuznes tomonidan kiritilgan. 1944-yildagi Bretton-Vudsk konferensiyasidan so‘ng YIM iqtisodiyotning hajmini o‘lchash uchun hozirgi kungacha asosiy ko‘rsatkich bo‘lib qolmoqda.

Odatda xalqaro amaliyotda YIM choraklar va yil yakuni bo‘yicha hisoblanadi. U ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi: nominal (joriy narxlar) hamda real (solishtirma narxlar). Xalqaro qiyoslash maqsadida YIM xalqaro valyuta birligida, an‘anaga binoan, AQSH dollarida o‘lchanadi.

Davomi 2-beta

Sharh

BIZNES BYUROKRATIYASI YANADA QISQARMOQDA

bu tadbirkorga nima beradi?

Mamlakatimizda ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, eskirgan, zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillarni takomillashtirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur yo‘nalishlarda olib borilgan ishlar litsenziyalash va ruxsat berish tizimini liberallashtirish hamda institutsional isloh qilishning yangi bosqichini boshlash uchun mustahkam asos yaratadi. Xususan, o‘tgan besh yilda 400 dan ortiq litsenziya yoki ruxsatnomadan 132 tasi

bekor qilindi, shuningdek, bu yo‘nalishda 34 ta faoliyat turi xabardor etish tartibiga o‘tkazildi.

Jumladan, Prezidentimizning 2020-yil 24-avgustdagi “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”-

gi farmoni bilan litsenziyalash sohasida jami 52 ta tartib-taomil bekor qilindi hamda 23 ta faoliyatni vakolatli organi xabardor qilgan holda boshlash tartibi yo‘lga qo‘yildi.

Davomi 2-beta

Tahlil va taqqos

GLOBAL “GOLD LEVEL”
SERTIFIKATI

yo‘xud O‘zbekiston statistika tizimi faoliyati boshqa xalqaro reytinglarda qanday baholanayotgani haqida

Statistika fan sifatida turli hodisalar va jarayonlarni miqdoriy hisoblash, ma‘lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish yo‘li bilan ijtimoiy hayotning umumiy tamoyillarini o‘rganadi. Amaldagi qonunga ko‘ra esa uning asosiy vazifasi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlar hamda ularning natijalari to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash, to‘plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil etish va e‘lon qilishdan iborat.

Davomi 4-beta

Tahlil va taqqos

GLOBAL "GOLD LEVEL" SERTIFIKATI

yoxud O'zbekiston statistika tizimi faoliyati boshqa xalqaro reytinglarda qanday baholanayotgani haqida



uning birlamchi manbasi, hisoblagan organ va uslubiyoti, mas'ul bo'linsa va xodim to'g'risida hamda shu kabi boshqa ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

"MHT — 2008" xalqaro standarti qanday maqsadlarga xizmat qiladi?

Milliy hisoblar tizimi (MHT) iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalovchi hisoblar va jadvalning muayyan to'plami shaklida tuzilgan, o'zaro bog'liq statistik ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiradigan xalqaro uslubiyat bo'lib...

Dasturda rasman ishtirok etishni boshladik

Xalqaro taqqoslashlar dasturi Birlashgan Millatlar Tashkilotining statistika sohasi bo'yicha eng keng qamrovli va muhim global loyihasi hisoblanadi. U dunyoning deyarli barcha davlatlari statistika idoralari ishtirok etadigan xalqaro statistik dastur bo'lib...

Yangi O'zbekiston muxbiri Rauf NURULLAYEV yozib oldi.

Quyoshli kunlar davomida "online" rejimida suv sarfi va sathi, ularning minerallasganlik ko'rsatkichlarining monitoringini yuritish orqali yerlarning meliorativ holatini baholash aniqdigi 20 foizga oshirildi.

Boshlanishi 1-betda

Demak, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini, shuningdek, hodisa va jarayonlar xolis, ochiq-oydin oshkora etilishi bevosita statistika idoralarning rivojlanganlik darajasi bilan chambarchas bog'liq.



hisoblanadi. Barqaror ochiq ma'lumotlardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy, amaliy, texnik va ijtimoiy talablarni qamrab oladi.

BRM xalqaro reytingida 8 pog'onaga ko'tarildi

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog'i (SDSN) va xalqaro ekspertlar tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan BRM (SDG index) reytingida O'zbekiston 71,1 indeks bilan 166 mamlakat orasida 69-o'rinni egalladi.

2023-yilgi SDG index hisobotiga asosan, O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlariga mamlakatda kambag'allikni qisqartirish, sog'liqni saqlash va farovonlik, sifatli ta'limni ta'minlash, gender tengligiga erishish, toza suv hamda sanitariya, sanoatlashtirish, innovatsiya, infratuzilma, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, tinchlik, adolat, samarali boshqaruv kabi yo'nalishtirishlar yaxshi ko'rsatkichlarga erishgan.

2019-yilda BMT Taraqqiyot dasturining texnik ko'magi bilan mamlakatimizda Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari ko'rsatkichlari bo'yicha nsdg.stat.uz veb-sayti (https://nsdg-stat.uz/uz) ishlab chiqilgan edi.

"Ochiq Gender ma'lumotlari indeksi"da jahonda 20-o'rindamiz, ODIN reytingida-chi?

Open Data Watch tashkilotining so'nggi hisobotida O'zbekiston "Ochiq Gender ma'lumotlari indeksi"da 69,7 ball to'plagan holda jahondagi eng yaxshi 20 ta mamlakat orasidan joy oldi.

Mamlakatimizda gender statistikani yuritish bo'yicha Statistika agentligi vakolatli organ bo'lib, gender statistikani yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish bo'yicha alohida bo'lirma tashkil etilgan.

Statistika portali ishga tushdi

Agentligimiz tomonidan "Statistika" integrallashgan axborot tizimi (SIAT) yaratildi hamda uning negizida siat.stat.uz O'zbekiston Respublikasi statistika portali ishga tushirildi.

- 2015-yilda 125 mamlakat orasida 3 ball bilan 125-o'rinni; 2016-yilda 173 mamlakat orasida 13 ball bilan 168-o'rinni; 2017-yilda 180 mamlakat orasida 18 ball bilan 167-o'rinni; 2018-yilda 178 mamlakat orasida 19 ball bilan 168-o'rinni; 2020-yilda 187 mamlakat orasida 63 ball bilan 44-o'rinni; 2022-yilda 192 mamlakat orasida 66 ball bilan 40-o'rinni egallagan.



ma'lumotlarni elektron formatda ham olish imkoniyatini yaratadi. SIAT — rasmiy statistikasi e'lon qilish va ularni foydalanuvchilar tomonidan qidirib topishni 5-10 barabarga tezlashtirdi.



Data Watch tashkiloti ekspertlari tomonidan ijobiy baholandi.

Hozirgi kunda SIAT axborot tizimida 19 ta yo'nalishda jami 1700 dan ortiq rasmiy statistik ko'rsatkich, 10 yillik dinamik qatorlarda, shuningdek, 30 yillik makroko'rsatkichlar 5 yillik kesimda foydalanuvchilarga qulay va bepul shaklda yuklab olish uchun 3 xil (Excel, PDF va JPG) formatda hamda mustaqil ravishda integratsiya qilish uchun 3 xil (CSV, JSON va XML) shaklda joylashtirildi.

SIAT axborot tizimi tegishli vazirlik va idoralar uchun zarur statistik ma'lumotlarni integratsiya yo'li bilan elektron axborot almashinishni yo'lga qo'yish hamda dolzarb vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Kun mavzusi

Zo'rovon tumani "Qoratepa" muqobil mashina traktor parki hududidagi "Umid" fermer xo'jaligi tashabbusi bilan bir kilometrdan ortiq ichki ariqlar betonlashtirildi. Bu bejiz emas.

BETONDA HAYOT JILVASI BOR



Suv fermer xo'jaligi ekin maydonlariga Qoratepa qishlog'i orolab o'tgan ariqdan keladi. Bu ekinlar vegetatsiyasi davrida o'ziga xos qiyinchiliklar keltirib chiqqan.

amallarida qo'l kelmog'ida. Joriy mavsumda 20 gektardan ortiq ekin maydonlarida tomchilatib va yomg'irliq sug'orish texnologiyalarini joriy etish ustida ish olib boryapmiz.

Joriy yilda klaster, fermer va dehqon xo'jaliklari ixtiyorida 1470 kilometrdan ortiq ichki ariqlarni betonlashtirish bo'yicha manzilli dastur ishlab chiqildi.

ekinlarni sug'orish bilan bog'liq ish jarayonlarini tezlashtirishda yaxshi samara beradi — deydi "Sirdaryo-So'x" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i Faxriddin Tursunov.

Qoratepa ariqi orqali 10 gektardan ortiq ekin maydonlarini sug'oramiz, — deydi fermer Umidjon Isoqov. — Bu mavsumda 6,8 million metr kubdan ortiq suv talab qiladi, deganidir.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

